



Maktab o'quvchilari jinoyatchiligi: zamonaviy kriminologik tendensiyalar va profilaktika muammolari

A.M.Шермухаммедов

Ўзбекистан Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети мустақил изланувчиси

Аннотация

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy statistik ma'lumotlari asosida maktab o'quvchilari o'rtasidagi jinoyatchilikning zamonaviy tendensiyalari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida 13–15 hamda 16–17 yoshli shaxslar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklarning dinamikasi, hududiy differentsiatsiyasi va umumiy jinoyatchilik tarkibidagi ulushi kriminologik nuqtai nazardan baholangan. Tahlil natijalari 16–17 yoshli o'smirlar jinoyatchiligining keskin o'sayotganligini hamda uning umumiy jinoyatchilikdagi ulushi yuqori darajaga yetganligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, 13–15 yoshli guruh ko'rsatkichlarining kamayishi "yosh siljishi" fenomeni bilan izohlangan. Maqolada COVID-19 pandemiyasining kriminogen ta'siri, hududiy xavf omillari va profilaktika tizimining samaradorligi ham tahlil qilingan. Ilmiy yangilik sifatida maktab o'quvchilari jinoyatchiligini huquqiy va kriminologik jihatdan integrallashgan holda baholovchi "ikki qavatli definitson model" statistik ma'lumotlar asosida asoslab berilgan. Tadqiqotning amaliy ahamiyati profilaktika mexanizmlarini takomillashtirish, hududiy monitoring tizimini kuchaytirish hamda qonunchilikka oid takliflarni ishlab chiqishda namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: maktab o'quvchilari jinoyatchiligi; voyaga yetmaganlar; kriminologik tahlil; profilaktika; yoshlar jinoyatchiligi; huquqbuzarliklar.

Аннотация. В статье на основе официальных статистических данных Республики Узбекистан за 2010–2025 годы исследованы современные тенденции преступности среди школьников. Проведен криминологический анализ динамики правонарушений, совершенных лицами в возрасте 13–15 и 16–17 лет, их региональной дифференциации и удельного веса в общей структуре преступности. Установлено, что после 2019 года наблюдается резкий рост преступности среди лиц 16–17 лет, доля которых в общей преступности в 2025 году достигла 5,1 %. Одновременно снижение показателей группы 13–15 лет интерпретируется через феномен «возрастного смещения». В статье анализируется криминогенное влияние пандемии COVID-19, региональные

факторы риска и эффективность профилактических механизмов. Научная новизна заключается в статистическом подтверждении «двухуровневой дефиниционной модели» подростковой преступности. Практическая значимость выражается в предложениях по совершенствованию профилактики, внедрению адресного мониторинга и развитию законодательства.

Ключевые слова. преступность несовершеннолетних; школьники; криминологический анализ; профилактика; подростковая преступность; региональная дифференциация; правонарушения

Abstract. This article analyzes contemporary trends in juvenile delinquency among school students in Uzbekistan based on official statistical data for 2010–2025. The study examines the dynamics of offenses committed by individuals aged 13–15 and 16–17, their regional differentiation, and their share in the overall crime structure from a criminological perspective. The findings demonstrate a significant increase in crimes committed by 16–17-year-olds after 2019, with their share in total crime reaching 5.1% in 2025. At the same time, the relative decline in offenses among 13–15-year-olds is interpreted through the phenomenon of “age shift.” The article also explores the criminogenic impact of the COVID-19 pandemic, regional risk factors, and the effectiveness of preventive mechanisms. The scientific novelty lies in the empirical substantiation of the “two-layer definitional model” of juvenile delinquency. Its practical significance is reflected in recommendations aimed at improving preventive systems, implementing targeted criminological monitoring, and enhancing legislation.

Keywords. juvenile delinquency; school students; criminological analysis; prevention; youth crime; regional differentiation; offenses

I. KIRISH: STATISTIK MANBALAR VA METODOLOGIK ASOSLAR

Ushbu ilmiy-analitik tahlil O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy statistik ma'lumotlari — jumladan, 2.04.09.0015 va 2.04.09.0014-kodli indikatorlar hamda 2.04.09.0109 va 2.04.09.0108-kodli ulush ko'rsatkichlari — asosida tayyorlangan¹. Mazkur ma'lumotlar 2026-yil 22-aprelda so'nggi marta yangilangan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan yillik asosda taqdim etiladi.

Tahlilning maqsadi — «Maktab o'quvchilari tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar va ularning profilaktikasini takomillashtirish» mavzusidagi PhD-dissertatsiya uchun 2024–2025-yillar bo'yicha zamonaviy empirik ma'lumotlar bazasini ilmiy-kriminologik aspektda shakllantirishdan iborat. Tahlil nazariy va empirik qismlarga taalluqli materiallar bilan bir vaqtda xulosa va tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Statistik ma'lumotlar ikkita asosiy yoshdagi guruhni qamrab oladi: jinoiy javobgarlik yoshiga yetmagan 13–15 yoshlilar (real sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishlar) va jinoiy javobgarlik yoshi chegarasiga kiruvchi 16–17 yoshlilar. 2023-yildan boshlab metodologik o'zgarish amalga oshirilgan: 16–17 yoshlilar bo'yicha ko'rsatkich 15–17 yoshlilar ko'rsatkichidan ajratilgan, 13–15 yoshlilar esa 13–14 yoshlilar indikatoridan alohida ko'rsatila boshlagan.

¹ [Huquqbuzarlik // https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika](https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika)

Statistik tahlil metodologiyasi sifatida davriy taqqoslash, tendensiya tahlili, hududiy tuzilmaviy tahlil va yosh guruhlari o'rtasidagi nisbiy taqqoslash usullari qo'llanilgan.

II. 16–17 YOSHDAGI JINOYATCHILAR: KENG MUDDATLI VA ZAMONAVIY TAHLIL

2.1. 2010–2025-yillar davomidagi dinamika tahlili

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, 2010-yildan 2025-yilgacha bo'lgan 16 yillik kuzatuv davri mobayinida 16–17 yoshli jinoyatchilar soni o'ta murakkab va ko'p bosqichli dinamika ko'rsatgan.

1-jadval. 16–17 yoshdagi jinoyatchilar soni va umumiy jinoyatchilikdagi ulushi (2010–2025)

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, indikator №2.04.09.0015

Yil	16–17 yoshli jinoyatchilar soni (kishi)	Umumiy jinoyatchilikdagi ulushi (%)
2010	2,153	2.3 %
2011	2,118	2.3 %
2012	2,029	2.1 %
2013	2,154	2.3 %
2014	2,011	2.1 %
2015	1,828	1.9 %
2016	1,630	1.7 %
2017	1,372	1.7 %
2018	903	1.7 %
2019	689	1.6 %
2020	1,088	2.2 %
2021	2,151	2.7 %
2022	2,434	2.7 %
2023	2,855	3.2 %
2024	2,998	5.0 %
2025	3,116	5.1 %

Jadval ma'lumotlarini kriminologik jihatdan tahlil qilsak, 2010–2019-yillar davomida doimiy va izchil kamayish tendensiyasi kuzatilgan: 2010-yildagi 2 153 ta ko'rsatkichdan 2019-yilga kelib 689 tagacha, ya'ni 68 foizga pasayish ro'y bergan. Bu muddatda amalga oshirilgan ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy islohotlar, ayniqsa, yoshlar siyosati va ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan davlat dasturlari samarali ta'sir ko'rsatganligi haqida xulosa chiqarish mumkin.

2020-yilda, ya'ni COVID-19 pandemiyasi boshlangan yili, 16–17 yoshlilar jinoyatchiligi 689 tadan 1 088 taga — 58 foizga oshgan. Bu hodisa nafaqat O'zbekistonda, balki dunyo miqyosida ham kuzatilgan bo'lib, karantin davridagi ijtimoiy izolyatsiya, onlayn-muhitga o'tish, oilalar ichidagi zo'ravonlikning kuchayishi va psixologik bosimning ortishi bilan bog'liq. Kriminologiya fanida bu hodisa «pandemiya kriminogen effekti» deb ataladi.

2021–2023-yillar davomida o'sish yanada jadalroq kechgan: 2021-yilda 2 151 ta, 2022-yilda 2 434 ta va 2023-yilda 2 855 ta holat qayd etilgan. Bu davr dissertatsiyaning asosiy empirik materiallari bilan mos keladi va hal qiluvchi ahamiyatga ega.

2024–2025-yillarda esa eng muhim kriminologik tendensiya kuzatilmog'da: 2024-yilda 2 998 ta va 2025-yilda 3 116 ta holat ro'yxatga olingan. Shu bilan birga, ushbu yosh guruhining umumiy jinoyatchilikdagi ulushi 2024-yilda 5.0%, 2025-yilda esa 5.1% ni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2010-yildagi 2.3% ga nisbatan 2.2 baravar ko'p bo'lib, 16 yillik kuzatuv davridagi eng yuqori ulush hisoblanadi.

Kriminologik jihatdan ayniqsa muhim xulosa shundaki, agar 2019-yilga nisbatan 2025-yilda umumiy jinoyatchilik ham o'sgan bo'lsa-da, 16–17 yoshlilar ulushi umumiy jinoyatchilikdan ham tez sur'atda o'smog'da — bu ushbu yoshdagi jinoyatchilikning nisbiy jihatdan ham kuchayganligini, ya'ni tarkibiy strukturada salmog'ining ortib borayotganligini bildiradi. Bu holat alohida ilmiy e'tiborga loyiqdir va dissertatsiyaning asosiy muammo qo'yilishi bilan bevosita bog'liqdir.

2.2. 2024–2025-yillar: hududiy tuzilmaviy tahlil

Hududiy tahlil eng muhim differentsiatsion ko'rsatkichlardan biri sifatida kriminologik tadqiqotlarda asosiy o'rinni egallaydi. 2-jadvalda O'zbekiston hududlari bo'yicha 16–17 yoshlilar jinoyatchiligining taqsimoti keltirilgan.

2-jadval. 16–17 yoshdagi jinoyatchilarning hududlar bo'yicha taqsimoti (2024–2025)

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, indikator №2.04.09.0015

Hudud	2024-yil	2025-yil	O'zgarish
O'zbekiston (jami)	2998	3116	+118
Farg'ona viloyati	533	496	-37
Toshkent shahri	524	521	-3
Namangan viloyati	336	346	+10
Toshkent viloyati	305	350	+45
Samarqand viloyati	194	286	+92
Andijon viloyati	250	296	+46
Qashqadaryo viloyati	202	175	-27
Surxondaryo viloyati	187	162	-25
Buxoro viloyati	170	169	-1

Hudud	2024-yil	2025-yil	O'zgarish
Qoraqalpog'iston Resp.	74	88	+14
Navoiy viloyati	61	64	+3
Jizzax viloyati	60	57	-3
Xorazm viloyati	43	54	+11
Sirdaryo viloyati	56	45	-11

Hududiy tahlil bir qator muhim kriminologik xulosalar chiqarishga imkon beradi. Birinchidan, Farg'ona viloyati 2024-yilda 533 ta va 2025-yilda 496 ta holat bilan respublika bo'yicha eng yuqori absolut ko'rsatkichni saqlab qolmoqda. Bu Farg'ona vodiysining demografik zichligi, aholi sonining ko'pligi va ijtimoiy-iqtisodiy taranglik omillari bilan bog'liq bo'lib, dissertatsiyaning 1.2-bandida ham alohida ta'kidlab o'tilgan. Biroq 2025-yilda bu viloyat bo'yicha ko'rsatkich 37 taga kamaygan — bu mahalliy profilaktika choralarining muayyan samarasini ko'rsatishi mumkin.

Ikkinchidan, Toshkent shahri 2024-yilda 524 ta va 2025-yilda 521 ta holat bilan ikkinchi o'rinni saqlab qolmoqda. Poytaxtdagi jinoyatchilik darajasining barqaror yuqori bo'lishi, bir tomondan, aholi zichligi, migratsiya jarayonlari va shaharlashuv tendensiyalari bilan, ikkinchi tomondan esa, shahar muhitidagi ijtimoiy tabaqalanish va kuzatuv tizimlari faoliyatining yaxshi yo'lga qo'yilganligi sababli ko'proq holat qayd etilishi bilan izohlash mumkin.

Uchinchidan, Samarqand viloyatida 2024-yildagi 194 tadan 2025-yilda 286 taga o'tish (+ 92 ta yoki +47 foiz) eng keskin o'sish ko'rsatkichi sifatida alohida e'tiborni talab qiladi. Bu tendensiya kriminologik monitoring va profilaktika choralarini ushbu viloyatda kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. Andijon viloyatida ham 2024-yildagi 250 tadan 2025-yilda 296 taga o'sish qayd etilgan.

To'rtinchidan, Sirdaryo (45 ta), Jizzax (57 ta) va Xorazm (54 ta) viloyatlarida 16–17 yoshlilar jinoyatchiligi nisbatan past darajada qolmoqda. Bu hududlarda profilaktika mexanizmlari va mahalliy ijtimoiy nazorat tizimining samaradorligi yuqori ekanligini ko'rsatadi.

III. 13–15 YOSHDAGI IJTIMOY XAVFLI QILMISHLAR: JINOYATGA QADAR BO'LGAN BOSQICH

3.1. 2010–2025-yillar davomidagi dinamika

13–15 yoshlilar tomonidan sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishlar statistikasi — dissertatsiya nuqtai nazaridan — 16–17 yoshlilar ko'rsatkichidan kamida ikki jihatda farq qiladi. Birinchisi, ushbu yoshdagi shaxslar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga ko'ra jinoiy javobgarlik yoshiga yetmagan bo'lishiga qaramay, ularning harakatlari rasmiy statistikada qayd etilib kelinmoqda va kriminologik jarayonlarning eng dastlabki signali sifatida qabul qilinadi. Ikkinchisi, ushbu guruh kelajakdagi 16–17 yoshli jinoyatchilar «pecheni» bo'lib, bu ikki ko'rsatkich o'rtasidagi korrelyatsiya yuqori darajada bo'lishi taxmin qilinadi.

3-jadval. 13–15 yoshdagi ijtimoiy xavfli qilmish sodir etuvchilar soni va ulushi (2010–2025)

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, indikator №2.04.09.0014

Yil	13–15 yoshli jinoyatchilar soni (kishi)	Umumiy jinoyatchilikdagi ulushi (%)
2010	506	0.5 %
2011	527	0.6 %
2012	493	0.5 %
2013	501	0.5 %
2014	517	0.6 %
2015	435	0.5 %
2016	429	0.5 %
2017	355	0.5 %
2018	197	0.4 %
2019	129	0.3 %
2020	188	0.4 %
2021	444	0.6 %
2022	678	0.8 %
2023	744	0.8 %
2024	366	0.6 %
2025	331	0.5 %

Ushbu yosh guruhidagi dinamika bir qator o'ziga xos xususiyatlarni namoyon etadi. 2010-yildan 2019-yilgacha bo'lgan davrda 13–15 yoshlilar ko'rsatkichi ham 506 tadan 129 taga — 74.5 foizga kamaygan, ya'ni bu tendensiya 16–17 yoshlilar dinamikasi bilan parallel kechgan. Bu holat umumiy kriminogen muhitning yaxshilanishi va profilaktika choralarining ta'siri samarali bo'lganligini ko'rsatadi.

2020-yilda bu guruhda ham o'sish kuzatilgan (129 tadan 188 taga), ammo o'sish nisbatan past (45.7 foiz) bo'lgan. 2021-yilda esa 444 taga, 2022-yilda 678 taga va 2023-yilda 744 taga keskin oshgan — bu oxirgi raqam butun 16 yillik kuzatuv davridagi eng yuqori ko'rsatkichdir.

2024–2025-yillarda muhim o'zgarish yuz bergan: 13–15 yoshlilar soni 2024-yilda 366 taga, 2025-yilda esa 331 taga pasaygan. Bu kamayish bir vaqtning o'zida ham ijobiy tendensiya, ham kriminologik ehtiyotkorlikni talab qiluvchi signal sifatida talqin etilishi kerak. Buning sababi shuki, kriminologiyada 13–15 yoshlilarning relativ kamayishi ko'pincha ularning 16–17 yoshlilar qatoriga o'tishi bilan, ya'ni «yosh tarkibiy siljish» effekti bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

3.2. 2024–2025-yillar: hududiy tuzilmaviy tahlil

13–15 yoshlilar bo'yicha hududiy taqsimot ham o'ziga xos differentsiatsiyani namoyon etadi.

4-jadval. 13–15 yoshdagi jinoyatchilarning hududlar bo'yicha taqsimoti (2024–2025)

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, indikator №2.04.09.0014

Hudud	2024-yil	2025-yil	O'zgarish
O'zbekiston (jami)	366	331	-35
Farg'ona viloyati	61	41	-20
Namangan viloyati	39	56	+17
Toshkent shahri	56	56	0
Toshkent viloyati	37	26	-11
Andijon viloyati	26	20	-6
Qashqadaryo viloyati	36	21	-15
Surxondaryo viloyati	21	16	-5
Samarqand viloyati	28	40	+12
Buxoro viloyati	17	26	+9
Qoraqalpog'iston Resp.	14	8	-6
Navoiy viloyati	14	7	-7
Jizzax viloyati	9	5	-4
Xorazm viloyati	2	5	+3
Sirdaryo viloyati	5	4	-1

Hududlar tahlilida e'tiborni tortuvchi muhim jihat — Namangan viloyatida 13–15 yoshlilar soni 2024-yildagi 39 tadan 2025-yilda 56 taga o'sgan (+43.6 foiz). Bu bir tomondan ushbu viloyatdagi umumiy yoshlar jinoyatchiligi tendensiyasining kuchayganligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan 16–17 yoshlilar guruhida ham Namangan uchinchi o'rinda turganligini hisobga olsak, bu hududda kompleks profilaktika choralarini kuchaytirish zarurligini anglatadi.

Samarqand viloyatida 13–15 yoshlilar soni 28 tadan 40 taga o'sgan va bu 16–17 yoshlilar bo'yicha ham ushbu viloyatda qayd etilgan keskin o'sish (194 → 286 ta) bilan uyg'un. Bu ikki guruh o'rtasidagi parallel o'sish mazkur viloyatda kriminogen muhitning umumiy kuchayayotganligidan dalolat beradi va alohida monitoringni talab qiladi.

Farg'ona viloyatida esa 13–15 yoshlilar soni 2024-yildagi 61 tadan 2025-yilda 41 taga pasaygan, bu umuman ushbu viloyatdagi ijobiy tendensiya sifatida baholash

mumkin. Biroq ushbu viloyat 16–17 yoshlilar bo'yicha hamon birinchi o'rinda turishini hisobga olsak, profilaktika choralari zaiflashtirishga o'rin yo'qligini ta'kidlash zarur.

IV. YOSH GURUHLARI O'RTASIDAGI QIYOSIY TAHLIL VA KRIMINOLOGIK INTERPRETATSIYA

4.1. Ikki guruhning integral taqqoslovi

Ikki yoshdagi guruh o'rtasidagi farq faqat miqdoriy emas, balki sifat jihatidan ham katta ahamiyatga ega. 5-jadvalda asosiy taqqoslov ko'rsatkichlari jamlangan.

5-jadval. 13–15 va 16–17 yoshlilar jinoyatchiligi qiyosiy taqqoslovi

Ko'rsatkich	13–15 yoshlilar	16–17 yoshlilar
2024-yil soni (kishi)	366	2 998
2025-yil soni (kishi)	331	3 116
Umumiy jinoyatchilikdagi ulushi (2025)	0.5 %	5.1 %
2019-yilga nisbatan o'sish (2025)	–35% (329 → 331*)	+352% (689 → 3116)
2024–2025 dinamikasi	↓ –35 ta (kamayish)	↑ +118 ta (o'sish)
Eng yuqori ko'rsatkich yili	2023 (744 ta)	2025 (3 116 ta)

Ushbu qiyosiy tahlil bir necha muhim kriminologik xulosani asoslaydi. Birinchidan, 16–17 yoshlilar ulushi umumiy jinoyatchilikda o'n barobar katta: 5.1% va 0.5%. Bu degani, jinoiy javobgarlik yoshiga yetgan o'smirlar har 20 ta jinoyatdan birini sodir etmoqda — bu kriminogen guruh sifatida alohida e'tiborga loyiq.

Ikkinchidan, ikki guruh o'rtasida tendensiya tafovuti mavjud: 16–17 yoshlilar soni 2024–2025 yillarda oshishda davom etayotgan bo'lsa, 13–15 yoshlilar soni kamaymoqda. Bu «yosh siljishi» gipotezasini — ya'ni yoshroq guruh jinoyatchiligining ularning 16–17 yoshga o'tishi bilan «yuqori guruhga» ko'chib o'tishini — tasdiqlovchi empirik dalil bo'lishi mumkin. Kriminologiyada bu fenomen «escalation pattern» (bosqichma-bosqich kuchayish modeli) deb ataladi.

Uchinchidan, 2024 yilda 13–15 yoshlilar soni 744 dan 366 taga pasaygan bo'lsa, bir vaqtning o'zida 16–17 yoshlilar soni 2855 dan 2998 taga o'sgan. Bu parallellik kasr-korrelatsiya jihatidan to'liq tasodifiy emas, chunki 2023-yilgi 13–15 yoshlilar 2024-yilga kelib 14–16 yoshlilar guruhiga o'tgan. Bu kointsidensiya tadqiqotchilar uchun katta qiziqish uyg'otadi.

4.2. 2019–2025-yillar: eng muhim tendensiya davri

2019-yil barcha yosh guruhlari bo'yicha tarixiy minimum ko'rsatkichi ekanligini alohida ta'kidlash lozim: 16–17 yoshlilar uchun 689 ta, 13–15 yoshlilar uchun 129 ta. Bu raqamlar O'zbekistonda yoshlar jinoyatchiligi profilaktikasining eng muvaffaqiyatli yili deb baholash imkonini beradi.

Ammo keyingi 6 yilda (2019–2025) 16–17 yoshlilar soni 689 tadan 3 116 taga o'sdi — bu 352 foizlik o'sish, ya'ni 4.5 baravar ko'payish demakdir. Bu o'sishning asosiy bosqichlari: 2019–2020 yillarda COVID-19 bilan bog'liq dastlabki keskin sakrash (58% o'sish), 2020–2021 yillarda normalizatsiya jarayonida yangi kriminogen

omillarning konsolidatsiyasi va 2021–2025 yillarda barqaror o'sish tendensiyasining davom etishi.

Muhim kriminologik savol shundaki: 2019-yil ko'rsatkichidan qachon va qanday yo'llar bilan qayta pastga qaytish mumkin? Dissertatsiya doirasida taklif qilingan profilaktika mexanizmlari — «qizil» va «sariq» toifalar tizimi, inspektor-psixologlar instituti, Olweus (OBPP) dasturi, FFT va FGC modellarining joriy etilishi — shu maqsadga xizmat qiladi. Statistik ma'lumotlar bu choralarning dolzarbligini alohida bir kuch bilan tasdiqlaydi.

V. NAZARIY INTERPRETATSIYA: STATISTIKANING KRIMINOLOGIK MODELLARGA MUNOSABATI

5.1. Ikki qavatli definitsiyon modeli va statistik tasdiq

Dissertatsiyaning I-bobida taklif etilgan «ikki qavatli definitsiyon model» — ya'ni maktab o'quvchilari jinoyatchiligini ham huquqiy (14/16–17 yoshli sub'ektlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar majmui), ham kriminologik (7–18 yoshli o'quvchi muhitidagi risklar tizimi) jihatdan tushunish zarurati — rasmiy statistik ma'lumotlar bilan yaxshi tasdiqlangan.

Birinchi qavat (yuridik): 16–17 yoshlilar bo'yicha 3 116 ta raqam aniq jinoiy statistik faktdir. Bu faktni faqat shu qavat doirasida ko'rib chiqsak, profilaktika sohasida 5.1 foizlik ulushni kamaytirish vazifasi qo'yiladi. Ikkinchi qavat (kriminologik): 13–15 yoshlilarning 331 tasi 16–17 yoshlilar oqimiga «kirishdan oldingi» guruh sifatida alohida profilaktikani talab qiladi. Bu ikki qavatning integratsiyalashgan tahlili profilaktika samaradorligini oshirishning asosiy metodologik shartidir.

5.2. Ziyadova modeli va uning statistik tasdig'i

D.Z.Ziyadovanning umumta'lim muassasalari o'quvchilari jinoyatchiligini «ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy omillarga nisbatan eng sezgir hodisa» sifatida tavsiflashi rasmiy statistik ma'lumotlar bilan bevosita tasdiqlangan. Jumladan, 2019-yil COVID-19 oldin bo'lsa-da, eng quyi nuqta bo'lgan, bu esa ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik davrida yoshlar jinoyatchiligi ham pasayishini ko'rsatadi. 2020-yildan keyingi o'sish esa ijtimoiy beqarorlik davrida bu guruhning eng tez ta'sir ko'rsatuvchiligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, hududlar bo'yicha differentsiatsiya ham Ziyadovanning «mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olish zarurligi» haqidagi xulosasini tasdiqlaydi. Samarqand viloyatidagi keskin o'sish va Jizzax yoki Sirdaryo viloyatlaridagi barqaror past ko'rsatkich — bu hududiy profilaktika siyosatining sifati va intensivligidagi farqning bevosita natijasidir.

5.3. COVID-19 va «pandemiya kriminogen effekti»

2020-yildagi statistik sakrash (689 → 1088 ta) kriminologiyada «pandemiya kriminogen effekti» deb ataladigan hodisaning O'zbekiston sharoitidagi empirik tasdiqidir. Mazkur effektning mexanizmi quyidagicha: ta'limning to'xtatilishi va masofaviy ta'limga o'tish ijtimoiy nazorat tizimini (maktab, mahalla, yuridik institutlar) zaiflashtirgdi; oilalarning iqtisodiy ahvolini yomonlashishi kriminogen muhit sharoitlarini kuchaytirdi; ijtimoiy izolyatsiya sharoitida o'smirlarning Internet muhiti va virtual jinoyatchilik to'dalari bilan aloqasi kuchaydi.

Ushbu effektning barqaror davom etishi (2020–2025 yillarda oshish to'xtamagan) esa pandemiyadan keyingi «kriminogen inertsiya» fenomenini ko'rsatadi: ya'ni pandemiya davridagi kriminogen sharoitlar tugagandan so'ng ham, jinoyatchilik darajasi avvalgi minimumga qaytmayapti. Bu holat profilaktika choralarining yangi bosqichi va yangi metodologiyasini talab qiladi.

VI. XULOSA

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining 2010–2025-yillar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlarining ilmiy-kriminologik tahlili quyidagi asosiy xulosalarga asoslanishga imkon beradi.

Birinchi xulosa. 16–17 yoshli jinoyatchilar soni 2019-yildagi tarixiy minimumlidan (689 ta) 2025-yilgacha 3 116 taga yetdi — bu 352 foizlik o'sish yoki 4.5 baravar ko'payish demakdir. Ushbu yosh guruhining umumiy jinoyatchilikdagi ulushi 16 yillik kuzatuv davrida eng yuqori darajaga — 5.1 foizga — yetdi.

Ikkinchi xulosa. 13–15 yoshlilar bo'yicha 2024–2025-yillarda musbat tendensiya (744 tadan 331 taga tushish) kuzatilgan bo'lsa-da, bu kamayish «yosh siljishi» effektining bir ko'rinishi bo'lishi mumkin, ya'ni bu guruhning bir qismi 16–17 yoshlilar qatoriga o'tib, u yerda statistikani oshirmoqda.

Uchinchi xulosa. Hududiy tahlil isbot etdiki, Samarqand viloyatida 16–17 yoshlilar soni 2024–2025-yillarda 47 foizga oshgan — bu respublika bo'yicha eng keskin o'sish bo'lib, alohida kriminologik diqqatni talab qiladi. Namangan viloyatida esa 13–15 yoshlilar soni ham, 16–17 yoshlilar soni ham o'sib bormoqda — bu hududiy profilaktika tizimining zaiflashganligidan darak beradi.

To'rtinchi xulosa. 2019-yil minimum ko'rsatkichi va undan keyingi o'sish tendensiyasi dissertatsiyada taklif etilgan profilaktika mexanizmlarining (toifalash tizimi, inspektor-psixologlar, xorij dasturlari) dolzarbligini empirik jihatdan tasdiqlaydi.

Beshinchi xulosa. Ikki yosh guruhining qiyosiy tahlili «ikki qavatli definitsiyon model»ning — nazariy va empirik jihatdan — adolatliligini ko'rsatdi: 13–15 yoshlilar jinoyatga qadar bo'lgan bosqich, 16–17 yoshlilar esa asosiy kriminologik intervensiyani talab qiluvchi guruh sifatida qaralishi lozim.

Yuqoridagi xulosalar majmuasi shuni ko'rsatadiki, maktab o'quvchilari jinoyatchiligi O'zbekistonda faqat o'tmishdagi muammo emas, balki 2024–2025-yillar ma'lumotlari bilan tasdiqlangan va kelajakda yanada kuchayishi mumkin bo'lgan kriminogen haqiqatdir. Bu holat dissertatsiyada ilgari surilgan taklif va tavsiyalarning nafaqat nazariy, balki bevosita amaliy zaruriyatini isbotlaydi.

VII. ILMIY TAVSIYALAR VA QONUNCHILIKKA TAKLIFLAR

Rasmiy statistik ma'lumotlarning kriminologik tahlili asosida quyidagi ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ushbu tavsiyalar dissertatsiyaning nazariy xulosalari bilan organik uyg'unlikda bo'lib, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik va profilaktika mexanizmlari doirasida amalga oshirilishi mumkin.

6-jadval. Ilmiy asoslangan tavsiyalar tizimi

№	Tavsiya yo'nalishi	Asoslanishi	Kutilayotgan natija
1	Kriminologik monitoring tizimini joriy etish: 13–17 yoshlilar jinoyatchiligini viloyatlar, jinoyat turlari va determinantlar kesimida real vaqtda kuzatuvchi yagona ma'lumotlar bazasini yaratish	2025-yilda 16–17 yoshlilar ulushining 5.1% ga yetishi va o'sish tendensiyasining davom etishi	Xavf darajasi yuqori hududlarda oldindan profilaktika
2	O'quv yilidan mustaqil ravishda 13–15 yoshlilar bilan ishlash mexanizmlarini ajratish (hozir 16–17 yosh bilan birlashtirilgan)	13–15 yoshlilar soni 2023 yilda 744 taga (eng yuqori) yetgach, 2025 yilda 331 taga tushgan — bu relaps xavfini bildiradi	Yoshroq guruhni erkin profilaktika oqimiga tushib qolishdan saqlash
3	Yuqori xavfli viloyatlarda (Farg'ona, Namangan, Toshkent shahri) manzilli kriminologik dasturlarni kuchaytirish	Farg'ona va Toshkentda 16–17 yoshlilar soni respublika bo'yicha eng yuqori ulushni tashkil qilmoqda	Hududiy tengsizlikni kamaytirish
4	Jinoyatga qadar bo'lgan ma'muriy huquqbuzarliklarni uzluksiz kuzatish tizimini kuchaytirish	N.P.Meleshko tadqiqotlariga ko'ra, mahkum etilgan o'smirlarning 93% oldin ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan	Jinoyatga o'tishning oldindan bloklanishi
5	O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksidagi 14 yoshdan jinoiy javobgarlik qoidasining ta'sirchanligini baholash va monitoring o'tkazish	2019–2020 yillarda 16–17 yoshlilar soni keskin (903 → 689 ta) kamaygan — bu qonunchilik islohotlari samaradorligini ko'rsatadi	Qonuniy ta'sir mexanizmlarini saqlab qolish

7.1. Qonunchilikka takliflar

1. MJtK ga yangi 47-7-moddani kiritish — "Voyaga yetmaganing raqamli qurilmalardan foydalanishini nazorat qilish bo'yicha ota-ona majburiyatlarini bajarmaslik". Ota-onaning yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxsning bolani ijtimoiy

tarmoqlarda va internetda nazorat qilmasdan qoldirishi natijasida bola zararli kontent, kiberbuling yoki jinoiy guruhlarining ta'siriga tushishi uchun alohida ma'muriy javobgarlikni belgilash.

Xorijiy tajriba: Janubiy Koreyada 2015-yilda qabul qilingan "Act on Prevention of Juvenile Internet Addiction" ota-onalarni bolalarning internetdan foydalanishini nazorat qilishga majbur etadi va maktablarda raqamli xavfsizlik dasturlarini joriy etishni belgilaydi. Xitoyda 2021-yildagi "Minor Protection Law" bolalarning onlayn-o'yinlardan foydalanishini kuniga 1 soatgacha cheklagan. Fransiyada 2024-yilda qabul qilingan qonun 15 yoshgacha bolalarning ijtimoiy tarmoqlarga ro'yxatdan o'tishini ota-onalar rozilgisiz taqiqlagan.

2. MJtK ga yangi "Voyaga yetmaganning tungi vaqtda nazorat qilinmasdan jamoat joylarida bo'lishiga yo'l qo'yish" mazmunidagi normani joriy etish.

3. MJtK ning 185²-moddasiga (Sovuq qurolni yoki sovuq qurol sifatida foydalanilishi mumkin bo'lgan ashyolarni olib yurish) voyaga yetmaganning ta'lim muassasasi hududiga qurol olib kirishiga oid kvalifikatsiya qo'shish.

Xorijiy tajriba: AQShda "Gun-Free Schools Act 1994" har qanday qurol (shu jumladan sovuq qurol) ni maktab hududiga olib kirgan shaxsga nisbatan 1 yilga chetlashtirishni nazarda tutadi. Buyuk Britaniyada "Offensive Weapons Act 2019" ta'lim hududida har qanday pichoq yoki sovuq qurol saqlash uchun og'irlashtirilgan javobgarlikni belgilaydi.

4. "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi Qonunning 13-moddasiga (Ta'lim organlari va muassasalari) qo'shimcha kiritish — har bir maktabda "Anti-bulling siyosati"ni joriy etishni majburiy belgilash. "Har bir umumiy o'rta ta'lim muassasasi o'quvchilar o'rtasida zo'ravonlik (bulling)ning oldini olish, aniq chora-tadbirlar tizimini va anonim shikoyat berish mexanizmini nazarda tutuvchi ichki siyosatni qabul qilishi shart. Mazkur siyosatni qabul qilmagan yoki uning talablarini bajarmaganlik uchun ta'lim muassasasi rahbarlariga ma'muriy javobgarlik belgilanadi."

5. "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi Qonunning 8-moddasiga (Profilaktika sub'ektlari tizimi) "Probatsiya xizmati organlarini" kiritish.

Xorijiy tajriba: Buyuk Britaniyada Youth Offending Teams (YOT) — yoshlar uchun maxsus probatsiya guruhlari har bir tumanida faoliyat yuritadi. Germaniyada "Jugendgerichtshilfe" — yoshlar sudi yordamchisi tizimi mavjud. Kanadada "Youth Justice Act 2003" probatsiya xizmatini voyaga yetmaganlar uchun alohida tartibga soladi.

6. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son Qonunini "Maktab o'quvchilarining huquqiy savodxonligi" deb nomlangan alohida modda bilan to'ldirish hamda 1-11-sinflar uchun "Huquqiy ta'lim" majburiy o'quv predmetining joriy etilishini qonun darajasida mustahkamlash taklif etiladi. Mazkur modda boshlang'ich sinflardan boshlab maktab o'quvchilarida qonunlarga hurmat, fuqarolik mas'uliyati va shaxsiy xavfsizlik madaniyatini shakllantirishni nazarda tutadi. Bu taklif AQShning Virjiniya shtati va Florida shtatidagi yuridik ta'lim dasturlari tajribasiga asoslangan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-avgustdagi 532-son qarorida belgilangan yuridik

ta'limning uzluksiz tizimini joriy etish vazifalarini amaliyotga tatbiq qilishga xizmat qiladi.

7.2. Amaliy takliflar

Birinchi amaliy taklif. Maktab o'quvchilarini «qizil» va «sariq» toifalarga ajratish tizimi (dissertatsiyada asoslangan) nafaqat dars qoldirish mezoniga, balki jinoyat sodir etish tendensiyasini ko'rsatuvchi psixologik va ijtimoiy ko'rsatkichlarga ham asoslanishi kerak. 16–17 yoshlilar bo'yicha 2025-yildagi 3 116 ta raqam — bu tizimning zudlik bilan keng miqyosda joriy etilishi zarurligini ko'rsatmoqda.

Ikkinchi amaliy taklif. Xorij profilaktika dasturlari — Norvegiyaning OBPP, Kanadaning SNAP™, AQShning FFT va Yangi Zelandiyaning FGC modellari — dissertatsiyada taklif etilganidek, Samarqand, Namangan va Farg'ona viloyatlarida pilot loyiha sifatida zudlik bilan joriy etilishi; keyinchalik respublika miqyosida kengaytirilishi maqsadga muvofiq.

Uchinchi amaliy taklif. 2025-yilda 16–17 yoshlilar ulushining 5.1 foizga yetishi va bu ko'rsatkichning o'sishda davom etishi hisobga olingan holda, Vazirlar Mahkamasi huzurida yoshlar jinoyatchiligi bo'yicha yillik kriminologik hisobot tizimini joriy etish va uning natijalariga ko'ra profilaktika dasturlari moliyalashtirilishini ko'zda tutish zarur.

FOYDALANILGAN MANBALAR

Rasmiy statistik manbalar

1. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Jinoyat sodir etganligi aniqlangan 16–17 yoshdagi shaxslar soni. Indikator №2.04.09.0015. So'nggi yangilangan: 2026-yil 22-aprel. URL: https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_3440.pdf

2. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Jinoyat sodir etganligi aniqlangan 13–15 yoshdagi shaxslar soni. Indikator №2.04.09.0014. So'nggi yangilangan: 2026-yil 22-aprel. URL: https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_3441.pdf

3. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. 16–17 yoshdagi jinoyatchilarning umumiy jinoyatchilikdagi ulushi. Indikator №2.04.09.0109. So'nggi yangilangan: 2026-yil 22-aprel.

4. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. 13–15 yoshdagi jinoyatchilarning umumiy jinoyatchilikdagi ulushi. Indikator №2.04.09.0108. So'nggi yangilangan: 2026-yil 22-aprel.

5. O'zbekiston Respublikasi IIV axborot tahliliy ma'lumotlari. Ijtimoiy soha statistikasi boshqarmasi.

Dissertatsiya matni va ilmiy adabiyotlar

6. Ziyadova D.Z. Teoreticheskie i prikladnye problemy prestupnosti sredi uchashchixsya obshcheobrazovatelnyx uchrezhdeniy: regionalnyy aspekt. Dis.dok.yurid.nauk. — Moskva, 2006. — 464 s.

7. Prozumentov L.M. O pokazatelyax, xarakterizuyushchix prestupnost nesovershennoletnix v Rossiyskoy Federatsii // Vestnik Tomskogo gosuniversiteta. Pravo. — 2016. — №2(20). — S.48–53.

8. Meleshko N.P. Predprestupnoe povedenie nesovershennoletnix kak kriminologicheskaya problema. — Rostov-na-Donu, 1998. — S.15.

9. Lelekov V.A. Mexanizm formirovaniya i kriminologicheskie osobennosti lichnosti nesovershennoletnix, sovershivshix prestupleniya korystno-nasilstvennoy napravlenosti. — Cyberleninka.ru.

10. Rustambayev M.X., Abdurasulova Q.R., Nurmuhamedova G.B. Kriminologiya: Darslik. — Toshkent: Yuridik adabiyotlar Publish, 2024. — 424 b.

11. Усманова Муборак Акмалджановна. (2026). Вояга етмаганлар жиноятчилиги: криминологик таҳлил ва профилактика механизмларини такомиллаштириш. International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS). — 2026. — Vol. 9, Issue 02. — Б. 9–14. <https://doi.org/10.5281/zenodo.18731925>